

# "Yoshlik I" konini o'zlashtirish" investitsiya loyihasi bo'yicha ma'lumotnoma

(2022 yil 01.10. holatiga)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Olmaliq KMK" AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 26 maydagi PQ-4731-son qaroriga muvofiq mazkur loyihani amalga oshirish natijasida:

**I-bosqich** – 2021-2025 yillarda 290 ming tonna mis katodi, 38 tonna oltin va 203 tonna kumush;

**II-bosqich** – 2024-2028 yillarda 400 ming tonna mis katodi, 50 tonna oltin va 270 tonna kumush metallari ishlab chiqarishga erishiladi.

## I. LOYIHANI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI

### 1. Yoshlik I koni bo'yicha:

Yoshlik I konini o'zlashtirish bo'yicha ishlar jadal olib borilayapti. 2 smenada ishlar tashkil etilgan.

Bugungi kunda obektda tog'-kon ishlari olib borilmoqda, 1 733 nafar ishchi-xodimlar va 400 dona texnika ishlamoqda.

Bosh loyihachi "Гипроцветмет" AJ tomonidan bugungi kunga qadar loyihaning birinchi navbati bo'yicha texnik-iqtisodiy ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Ishchi hujjat ishlab chiqilmoqda.

"Yoshlik I" ruda qatlamiga etish va uni qazib olish maqsadida tuproq ishlari jadallik bilan olib borilmoqda:

2022 yil 1 oktyabr holatiga jami bajarilgan kon qazish ishlari hammasi bo'lib 130,1 million metr kubni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, kondai vaqtinchalik temiryo'llar va tashqi kommunikasiyalarni qurish ishlari olib borilmoqda.

### 2. 3-mis boyitish fabrikasi (MOF-3) bo'yicha

"UZTM-Karteks" va "Enter Enginnering" kompaniyalari konsortsiumi hamda "Olmaliq KMK" AJ o'rtasida 3-son mis boyitish fabrikasini (3-MBF) qurib, "tayyor holda topshirish" sharti bilan qiymati 2 mlrd. dollar bo'lgan shartnoma tuzilgan.

Loyihalashtirish ishlariga "Wood" (Italiya), loyiha hujjatlarini texnik jihatdan baholash va qabul qilish uchun "Technip Energies" (Buyuk Britaniya) kompaniyalari jalb qilingan.

Loyiha doirasida 1,5 ming kishi uchun quruvchilar shaharchasi va direksiya binolari qurilishi yakunlandi.

Shuningdek, qoldiqlarni saqlash obektlari bo'yicha zarur bo'lgan er maydonlari ajratilib, bugungi kunda er ishlari olib borilmoqda.

### **3. Suv ta'minoti obektlarini qurish bo'yicha:**

3-MBF tashqi suv ta'minoti sxemasi tasdiqlandi;

obektlar uchun zarur bo'lgan hududlarning aniq chegaralarini va zarur bo'lgan er maydonalri ajratildi (712 ga);

"O'zgeorangmetLITI" tomonidan ishchi hujjatlarni ishlab chiqish olib borilmoqda;

"O'zbekgidrogeologiya" DUK tomonidan suv zaxiralarini tasdiqlash maqsadida qidiruv ishlari olib borilmoqda.

### **4. Elektr ta'minoti obektlari bo'yicha:**

"Yoshlik I" konining tashqi elektr ta'minoti obektlarini qurish uchun tanlov o'tkazildi va "O'zelektroapparat-Electroshield" kompaniyasi bilan shartnoma imzolandi. Ayni vaqtga kelib Lep500kv tayanchlari 10kmda to'liq ta'mirlandi, 7,5 km dan ziyod masofaga kabellar yotqazildi shu jumladan:

Asosiy uskunalarni eetkazib berish yakunlandi(97%ga), montaj ishlari olib borilmoqda;

7 dona 500/100 transformatorlar o'rnatildi;

nimstantsiya binosini qurish ishlari olib borilmoqda;

Shuningdek, 500 kVli raqamli nimstantsiyaning qurilish montaj ishlari 95%ga bajarildi va yil oxiriga tugatilishi kutilmoqda.

2023 yilning yanvar oyida sozlash, ishga tushirish ishlarini bajarish rejalashtirilmoqda.